

**SCIENCEZONE**

ONLINE SCIENTIFIC  
CONFERENCES

# Conference On Legal Science



No.3 (3)

**2024**

### 12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

<i>Xusanova Muxlisa Xayrullo qizi</i>	
KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN HUQUQLARNI SUISTE'MOL QILINISHINING SHAKLLARI VA OQIBATLARI .....	3
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i>	
O'ZBEKİSTONDA ISLOM MOLİYA INSTITUTLARINI SOLIQQA TORTİSH: MUAMMOLAR, TAKLIFLAR VA XALQARO TAJRIBA .....	8
<i>O'rəzbayev Laziz Shuxrat o'g'li</i>	
MAMLAKATIMIZDA HAMDA XORİJIY DAVLATLARDA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN SANOAT MULKI OBYEKTLARINING MUHIM AHAMIYATI .....	15
<i>Mutalov Oybek Bahrom o'g'li</i>	
SUN'IY INTELLEKTNING SUD TİZİMİDA QO'LLANILISHI: IMKONİYATLAR VA XAVF-XATARLAR .....	25
<i>Yashnarbekov Otoboy Yashnarbekovich</i>	
LEGAL FRAMEWORK FOR TELEMEDICINE CONTRACTS: BALANCING CIVIL AND LABOR LAW ASPECTS IN UZBEKISTAN .....	30
<i>Nazarov Azizjon Taxirdjanovich</i>	
LEGAL NATURE AND CLASSIFICATION OF CRYPTOCURRENCY EXCHANGE CONTRACTS: A COMPARATIVE ANALYSIS .....	49
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i>	
META MAKONDA INSON HUQUQLARINI HIMoya QILISH MUAMMOLARI .....	70

### MAMLAKATIMIZDA HAMDA XORIJIY DAVLATLARDA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN SANOAT MULKI OBYEKTALARINING MUHIM AHAMIYATI

O'razbayev Laziz Shuxrat o'g'li | [lazizbekorazbayev@gmail.com](mailto:lazizbekorazbayev@gmail.com)

*Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining Chilonzor tuman bo'lim -  
davlat ijrochisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezis mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda davlat buyurtmasi asosida yaratilgan sanoat mulki obyektlarining ahamiyatini o'rganadi. Tezisda sanoat mulki obyektlarining turlari, ularning yaratilish usullari, xizmat vazifasini bajarish jarayonida va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar, xususan Yaponiya tajribasi ko'rib chiqiladi. Tezis yakunida O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud bo'shliqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** sanoat mulki, davlat buyurtmasi, xizmat vazifasi, intellektual mulk huquqi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, Yaponiya tajribasi.

### THE SIGNIFICANCE OF INDUSTRIAL PROPERTY FACILITIES CREATED BY GOVERNMENT ORDER IN OUR COUNTRY AND IN FOREIGN COUNTRIES

**Orazbayev Laziz Shukhrat ogli**

*Bureau of Compulsory Enforcement under the General Prosecutor's Office,  
Chilonzor district department - state executive*

**Abstract.** This thesis examines the importance of industrial property objects created on the basis of state orders in our country and foreign countries. The thesis analyzes the types of industrial property objects, their creation methods, and the specific features of objects created in the course of performing official duties and on the basis of state orders. The experience of foreign countries, particularly Japan, is also considered. The thesis concludes with recommendations on addressing existing gaps in Uzbekistan's legislation.

**Keywords:** industrial property, state order, service duty, intellectual property rights, invention, utility model, industrial design, Japanese experience.

---

Sanoat mulki obyektlari mamlakat rivojida muhim rol o'ynashi sababli ularning yaratilishi ham biz uchun muhim hisoblanadi, chunki yaratilgan intellektual mulk obyektiga nisbatan huquqlar kimda vujudga kelishi, uni patentlash huquqi, obyektga tegishli huquqlarni kimgadir berish huquqi va shu kabi huquqlarning vujudga kelishi bilan bog'liq holatlar intellektual mulk obyektini yaratgan shaxslarga ham va undan foydalanishni xohlovchi shaxslarga ham birdek ahamiyatli. Sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi maxsus qonun hisoblanadigan "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalari sanoat mulki obyektlari hisoblanishi belgilangan[1]. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari orqali farqlanadi. Masalan, ixtiro yangi texnik yechim, qurilma yoki usul hisoblanadi, foydali model bo'lsa qurilmaning konstruktiv bajarilishi sanaladi. Har ikkalasida ham yangi obyekt vujudga keladi, ammo, sanoat namunasi faqatgina mahsulotning tashqi ko'rinishidagi yangi va qo'shimcha o'zgarishlarni ifodalaydi xolos. Ularning himoya qilish muddatlari ham turlicha, masalan, ixtiro odatda 20 yil, foydali model ko'pincha 10 yil atrofida, sanoat namunasi bo'lsa odatda 15-25 yil oralig'ida himoya qilinadi. Ixtiro keng qamrovli bo'lib turli sohalarda, foydali model ko'proq amaliy texnik yechimlar sifatida, sanoat namunasi esa dizayn va estetik jihatlar muhim bo'lgan sohalarda qo'llaniladi. Ularning iqtisodiy ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, ixtiro odatda eng yuqori iqtisodiy qiymatga, foydali model o'rtacha iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblansa, sanoat namunasi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhimga ega sanaladi[2]. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, sanoat mulki obyektlari mamlakat rivoji, ya'ni iqtisodiy rivojlanish uchun juda muhim ahamiyatga ega, shu sababli, uning yaratilishi, ro'yxatga olinishi, unga tegishli huquqlarning vujudga kelishi ham juda muhim. Ayniqsa, mutlaq huquqlarning kimga tegishli ekanligi, yaratilgan sanoat mulki obyektidan foydalanishda ham ahamiyatli sanaladi, odatda sanoat mulki obyektlari yaratuvchining shaxsiy tashabbusi orqali yaratiladi, lekin shunday holatlar borki, ular xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yoki davlat buyurtmasi asosida ham yaratilishi mumkin. Qonunchiligmizda davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan sanoat mulki obyektlari haqida qoidalar yoritilmaganligi sababli biz

ularga taalluqli qoidalarni qonun analogiyasi hamda huquq analogiyasi yordamida yoritishga harakat qilamiz.

Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ixtiro, foydali model va sanoat namunasining xususiyatlari e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, har uch holda ham obyektlar davlat buyurtmasi asosida, ya'ni davlat mablag'lari hisobidan va davlat manfaatlarini ko'zlab yaratiladi. Uchala obyekt ham intellektual mulk huquqi bilan himoyalanadi va tegishli hujjatlar (patent yoki guvohnoma) bilan tasdiqlanadi. Har uch holatda ham asl ijodkorning mualliflik huquqi saqlanib qoladi va tan olinadi. Bu obyektlar odatda davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda yaratiladi. Har uch turdag'i obyektni tijoratlashtirish imkoniyati mavjud, ammo bu jarayon davlat nazorati ostida bo'lishi mumkin[3], ya'ni davlat buyurtmasi asosida yaratilganligi sababli davlat uning tijoratlashtirilishini o'zi nazorat qiladi.

"Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunida xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yaratilgan sanoat mulki obyektiga quyidagicha tarif beriladi. Xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki obyektining patentiga bo'lgan huquq, agar bu hol ular o'rtaida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi, ya'ni xizmat vazifalarini bajarish jarayonida sanoat mulki obyekti yaratilsa ushbu yaratilgan intellektual mulkka nisbatan beriladigan patent huquqi ish beruvchiga tegishli hisoblanadi, ba'zi bir holatlarda, ya'ni tomonlar o'rtaida tuzilgan mualliflik shartnomasida patent huquqi xodimga tegishli bo'lishi belgilangan holatlar ham bo'lishi mumkin, bu albatta tomonlarning xohish-irodasiga bog'liq. Shuningdek, patent egasi bo'lмаган, o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki obyektining muallifi (hammualliflari) tegishli sanoat mulki obyektidan foydalanilganligi yoxud unga oid litsenziya sotilganligi uchun haq olish huquqiga ega hisoblanadi. Sanoat mulki obyektidan foydalanilganlik yoki unga oid litsenziyani sotganlik uchun tushayotgan mablag'lar hisobidan muallifga (hammualliflarga) to'lanadigan haqning miqdori, uni to'lash shartlari va tartibi muallif (hammualliflar) hamda ish beruvchi o'rtaсидаги shartnomada belgilanadi. Aksariyat bu turdag'i shartnomalarda quyidagi qoidalar belgilanadi:

- Obyektga bo'lgan huquq odatda ish beruvchiga tegishli bo'ladi;
- Mualliflik huquqi esa xodimda saqlanib qoladi;

- Xodim muallif sifatida tan olinish va mukofot olish huquqiga ega hisoblanadi.

Yuqorida xizmat vazifasini bajarish asosida va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan sanoat mulki obyektlari haqida to'xtalib o'tdik, endi ularning farqli va o'xhash jihatlarini taqqoslab ko'ramiz:

### O'xhash jihatlar:

- Har ikki holda ham sanoat mulki obyektlari ma'lum bir topshiriq yoki vazifa asosida yaratiladi.
- Har ikki holatda ham asl muallifning mualliflik huquqi saqlanib qoladi.
- Odatda mulkiy huquqlar buyurtmachi tomoniga o'tadi (ish beruvchi yoki davlat).
- Mualliflar rag'batlantirish va mukofot olish huquqiga ega bo'ladilar.

### Farqli jihatlar:

- Ular o'rtasidagi asosiy farqlardan biri buyurtmachi hisoblanadi, ya'ni xizmat vazifasini bajarish jarayonida ish beruvchi (korxona, tashkilot), davlat buyurtmasi asosida yaratilgan sanoat mulki obyektlari uchun davlat organlari yoki davlat tomonidan vakolat berilgan tashkilotlar buyurtmachi hisoblanadi.

- Moliyalashtirish manbasi birinchisida korxona yoki tashkilot mablag'lari hisobidan, davlat buyurtmasida davlat budgeti yoki maxsus ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

- Huquqlarning taqsimlanishidagi farq bu xizmat vazifasini bajarish jarayonida yaratilgan sanoat mulki obyektlarida odatda ish beruvchi barcha huquqlarga ega bo'ladi, davlat buyurtmasida bo'lsa huquqlar davlat va ijrochi o'rtasida shartnoma asosida taqsimlanadi.

- Xizmat vazifasini bajarish jarayonida yaratilgan sanoat mulki obyektlaridan ko'pincha faqat ish beruvchi manfaatlari uchun, davlat buyurtmasi keng jamoatchilik manfaatlari uchun foydalilanadi.

- Ularning maxfiylik darajasida ham farqlar mavjud, ya'ni xizmat vazifasi asosida yaratilgan obyektlar uchun korxona siyosatiga qarab turlicha maxfiylik siyosati bo'lishi mumkin, davlat buyurtmasida esa ba'zan davlat siri yoki maxfiy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- Huquqiy tartibga solish asoslari ham turlicha, ya'ni xizmat vazifasi asosida yaratilgan obyektlari asosan mehnat qonunchiligi va intellektual mulk

qonunlari bilan, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan obyektlar qo'shimcha ravishda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik bilan ham tartibga solinadi.

Xorijiy davlatlarda xizmat vazifasini bajarish asosida va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan sanoat mulki obyektlarining farqli va o'xhash jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning har biri nisabatn alohida hamda turlicha qarashlar mavjud. O'xhash jihatlar deyarli ko'plab mamlakatlarda bu masalalar intellektual mulk qonunchiligi doirasida tartibga solinadi. Mualliflik huquqi odatda asl ijodkorning mualliflik huquqi tan olinadi va himoya qilinadi. Mualliflarni rag'batlantirish uchun ko'p mamlakatlarda mualliflarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlari mavjud.

Farqli jihatlarni mamlakatlar doirasi alohida ko'rib o'tamiz. Masalan, huquqlarning taqsimlanishi:

- AQSh: "Work for hire" doktrinasi asosida ish beruvchi odatda to'liq huquqlarga ega bo'ladi[4].

- Yevropa: Ko'p mamlakatlarda xodim va ish beruvchi o'rtaida huquqlar muvozanatlari taqsimlanadi.

- Yaponiya: Xodimga ko'proq huquqlar beriladi, jumladan "xodim ixtirosi" tushunchasi keng qo'llaniladi.

Davlat buyurtmasi xususiyatlari:

- AQSh: "Bayh-Dole Act" asosida davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan ixtiolar bo'yicha huquqlar universitet yoki tadqiqot markazlariga berilishi mumkin[5].

- Xitoy: Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ixtiolar ko'pincha davlat mulki hisoblanadi.

- Yevropa Ittifoqi: Har bir a'zo davlat o'z siyosatini yuritadi, ammo umumiy tendensiya huquqlarni muvozanatlari taqsimlashga qaratilgan hisoblanadi.

Mukofotlash tizimi:

- Germaniya: Xizmat ixtirolari uchun aniq hisob-kitob asosida mukofot berish tizimi mavjud.

- Buyuk Britaniya: Mukofotlash ko'proq shartnomaga asosida amalga oshiriladi.

- Janubiy Koreya: Davlat tomonidan yaratilgan intellektual mulknijtijoratlashtirish uchun maxsus dasturlar mavjud.

Maxfiylik va xavfsizlik:

- AQSh: Milliy xavfsizlikka oid ixtiolar uchun maxsus tartib-qoidalar mavjud.

- Rossiya: Davlat siri bilan bog'liq ixtiolar uchun alohida tartib o'rnatilgan.

Tijoratlashtirish:

- Isroil: Davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish uchun kuchli ekotizim yaratilgan.

- Singapur: Davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan tijoratlashtirish modeli qo'llaniladi.

Ushbu farqlar va o'xshashliklar har bir mamlakatning o'ziga xos qonunchilik tizimi, iqtisodiy siyosati va innovatsion rivojlanish strategiyasiga bog'liq hisoblanadi. Biz yuqorida mamlakatlar ichidan Yaponiya qonunchiligiga, intellektual mulk siyosatiga to'xtalib o'tamiz. Yaponiyada davlat buyurtmasi asosida yaratilgan sanoat mulki obyektlari masalasi mamlakatning innovatsion siyosati va intellektual mulk qonunchiligining muhim qismini tashkil etadi. Yaponiyada bu masala asosan "Sanoat mulki huquqining davlat tomonidan foydalaniishi to'g'risida"gi qonun va "Intellektual mulkni yaratish, himoya qilish va foydalanish bo'yicha intellektual mulk asosiy qonuni" bilan tartibga solinadi. Odatta, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ixtiolar yoki boshqa sanoat mulki obyektlari bo'yicha huquqlar davlatga o'tadi. Biroq, Yaponiya hukumati so'nggi yillarda bu siyosatni o'zgartirish ustida ishlayapti, chunki bu yondashuv innovatsiyalarni rag'batlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin deb hisoblanmoqda. Yapon qonunchiligiga ko'ra, hatto davlat buyurtmasi asosida yaratilgan bo'lsa ham, muallifning ma'naviy huquqlari (masalan, muallif sifatida tan olinish huquqi) saqlanib qoladi. Yaponiya hukumati davlat buyurtmasi asosida yaratilgan texnologiyalarni samarali tijoratlashtirish uchun turli dasturlar va mexanizmlarni joriy etgan. Masalan, universitet va tadqiqot institutlariga o'zlari yaratgan texnologiyalarni litsenziyalash imkoniyati berilgan. "Milliy manfaatlar" tushunchasi Yaponida kuchli bo'lganligi sababli ba'zi hollarda, agar ixtiro milliy xavfsizlik yoki muhim davlat manfaatlariga tegishli bo'lsa, hukumat uni maxfiy saqlash yoki foydalanishni cheklash huquqiga ega hisoblanadi. Bundan tashqari Yaponiya hukumati xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yaratilgan sanoat mulki obyektlari bo'yicha maxsus kelishuvlar tuzishi mumkin. Shuningdek, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ixtiolar uchun mualliflarga mukofot berish tizimi mavjud, ammo bu ko'pincha individual shartnomalar asosida amalga oshiriladi. So'nggi yillarda Yaponiya hukumati

davlat mablag'lari hisobiga olingan patentlar va boshqa intellektual mulk obyektlari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha qadamlar qo'ymoqda. Davlat buyurtmasi ko'pincha universitetlar va xususiy kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik loyihalari orqali amalga oshiriladi, bu esa innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan o'ziga xos siyosat hisoblanadi.

Yaponiyada "Sanoat mulki huquqining davlat tomonidan foydalanilishi to'g'risida"gi qonuni mavjud bo'lib, u yaponchada "特許法第93条" (Tokkyo-hō dai 93-jō) deb nomlanadi va uning asosiy maqsadi davlat manfaatlari uchun sanoat mulki huquqlaridan foydalanish tartibini belgilash hisoblanadi. Qonunning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Bu qonun patentlar, foydali modellar, sanoat namunalari va savdo belgilariiga taalluqli hisoblanadi.
- Qonun davlatga ma'lum sharoitlarda xususiy shaxslar yoki kompaniyalarga tegishli bo'lgan sanoat mulki huquqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.
- Bu asosan milliy mudofaa, jamoat xavfsizligi yoki boshqa muhim davlat manfaatlari uchun zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi.
- Davlat sanoat mulki huquqidan foydalanganda, huquq egasiga to'g'ri va adolatli kompensatsiya to'lashi shartligi belgilangan.
- Kompensatsiya miqdori odatda muzokaralar orqali yoki, agar kelishuvga erishilmasa, sud orqali belgilanadi.
- qonunga ko'ra davlat sanoat mulki huquqidan foydalanishni boshlashdan oldin huquq egasini rasman xabardor qilishi kerak.
- Qonun davlatning sanoat mulki huquqlaridan foydalanishini cheklaydi va buni faqat zarur hollardagina amalga oshirish mumkinligini belgilaydi. Bu cheklar huquq egalarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.
- Ba'zi hollarda, ayniqsa milliy xavfsizlik bilan bog'liq bo'lsa, davlat sanoat mulki huquqidan maxfiy ravishda foydalanishi mumkin.

Bu qonun Yaponiyada intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va davlat manfaatlarini muvozanatlashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Biroq, uning amalda qo'llanilishi juda kam hollarda sodir bo'ladi, chunki Yaponiya hukumati odatda xususiy sektor bilan hamkorlik qilishni afzal ko'radi.

Yaponiyaning "Intellektual mulkni yaratish, himoya qilish va foydalanish bo'yicha intellektual mulk asosiy qonuni"<sup>[6]</sup> mavjud bo'lib, u qonun yaponchada "知的財産基本法" (Chiteki Zaisan Kihon-hō) deb nomlanadi. Ushbu qonun 2002

yilda qabul qilingan va 2003 yilda kuchga kirgan. Uning asosiy maqsadi Yaponianing “intellektual mulkka asoslangan millat” sifatida rivojlanishini ta’minlash hisoblanadi. Qonunning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- Intellektual mulkni yaratish, himoya qilish va foydalanishni rag’batlantirish.

- Innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlash va iqtisodiy o’sishni ta’minlash.

- Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish.

Ushbu qonun quyidagi sohalarni qamrab olgan:

- Patentlar, foydali modellar, dizayn, savdo belgilari;

- Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar;

- Tijorat sirlari va nou-xau;

- Yangi navlar va boshqa biotexnologik ixtiolar.

Qonun davlat va xususiy sektor rolini muvofiqlashtirib turadi:

- Hukumatning intellektual mulk strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyati.

- Xususiy sektorning innovatsiyalarni yaratish va tijoratlashtirish bo'yicha faol ishtirokini rag'batlantirish.

Qonunning yana bir asosiy maqsadlaridan biri ta'lif, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash:

- Intellektual mulk sohasida mutaxassislar tayyorlash va ta'lif tizimini takomillashtirish.

Intellektual mulk siyosatini muvofiqlashtirish:

- Intellektual mulk strategiyasi bo'yicha bosh shtab tashkil etish.

- Vazirliklar va idoralar o'rtaida hamkorlikni ta'minlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash:

- Universitetlar va tadqiqot institutlarida yaratilgan intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini yaratish.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash:

- Kichik va o'rta korxonalarning intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va ulardan foydalanishda yordam ko'rsatish.

Hududiy rivojlanish:

- Intellektual mulk asosida hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish.

Qayta ko'rib chiqish mexanizmi:

- Qonunning samaradorligini muntazam baholash va zarur o'zgartirishlar kiritish.

Bu qonun Yaponianing intellektual mulk sohasidagi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi va mamlakatning innovatsion rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U doimiy ravishda yangilanib va takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, Yaponiya konteksida, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan obyektlar ko'pincha davlat-xususiy sektor hamkorligi doirasida amalgamoshiriladi va bu jarayon "Sangakukan" (sanoat-hukumat-universitet hamkorligi) tizimi orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bu yondashuv Yaponianing innovatsion ekotizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi. Albatta, Yaponianing "Sanoat mulki huquqlarining davlat tomonidan foydalanilishi to'g'risida"gi qonuni (inglizcha: "Law on Government Exploitation of Industrial Property Rights") muhim ahamiyatga ega. Bu qonun Yaponiyada intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va davlat manfaatlarini muvozanatlashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi[7]. Biroq, amalda u juda kam hollarda qo'llaniladi, chunki Yaponiya hukumati ko'pincha xususiy sektor bilan hamkorlik qilishni afzal ko'radi.

**Xulosa.** Intellektual mulk bilan bog'liq milliy qonunchiligidan e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ularda davlat buyurtmasi asosida yaratilishi mumkin bo'lgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan aniq bir tushuncha yoki qoida mavjud emas, shu tufayli, ko'p holatlarda ushbu muammo boshqa normalar bilan hal etiladi. davlat buyurtmasi asosida va xizmat vazifasini bajarish jarayonida yaratilgan sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlar masalasi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu masalani tartibga soladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun
2. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 485-489-б.
3. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 492-496-б.
4. John M. Garon & Elaine D. Ziff, The Work Made for Hire Doctrine Revisited: Startup and Technology Employees and the Use of Contracts in a Hiring Relationship, 12 MINN. J.L. SCI. & TECH. 489 (2011).
5. Copyright Law of the United States and Related Laws Contained in Title 17 of the United States Code. Circular 92. December 2022.
6. <https://baianat-ip.com.sa/intellectual-property-rights-law-in-japan/>  
<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3754/en>